

O'ZBEK VA NEMIS ADABIYOTIDAGI ERTAKLARNING MAZMUN-MOHIYATI

Ahmadova Azimaxon Behzod qizi

Farg'ona Davlat universiteti akademik litseyi o'quvchisi

akhmadovaazima627@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ikki xalqning bolalar uchun yaratilgan noyob san'at durdonalari va ularda ilgari surilgan g'oyalar haqida hamda ularning uslublari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Bolalar adabiyoti, o'zbek ertaklari, nemis ertaklari, ilgari surilgan g'oyalar, maqsad va vazifalar.

ANNOTATION

This article discusses the unique art masterpieces of the two nations created for children, the ideas presented in them, and their styles.

Key words: Children's literature, Uzbek fairy tales, German fairy tales, proposed ideas, goals and tasks.

Adabiyot-millat ko'zgusi hisoblanadi. Adabiyotda millatning hayoti, urf-odatlari, uning uzoq tarixi aks ettirilgan. Adabiyot o'ziga katta-yu kichiklarni jalg qila oladi. Buning sababi so'z san'atidir. So'z shunday qudratga ega-ki, insonlarni kuldiradi, yig'latadi, baxtli qiladi, vaqt kelsa g'amgin qiladi. Xullas, adabiyot barcha katta-yu kichiklarga birdek yoquvchi san'at asaridir. Yosh doirasi bo'yicha aytadigan bo'lsak, adabiyot o'z ichiga: bolalar adabiyotini ham qamrab oladi. Shunday qilib har bir xalqning jazzi bolajonlar uchun yaratilgan asarlari mavjud. Axir bolalar millatning kelajagi hisoblanadi. Bolalarni yoshliklaridanoq ularni kitobxonlikka o'rgatish

ularning ota-onalarini, ularni kitobga jalb qilish esa, kitob muallifining vazifasidir. Bolalar qancha yoshligidan kitob o‘qishga o‘rgansa, kitobxon bo‘lib voyaga yetsa, kelajakda ham kitobsevar bo‘lib yetishishining extimoli yuqoridir. Jamiyat bolalari qanchalar bilimli, salohiyatli, zukko bo‘lishsa, ana shu davlatning kelajagi buyukdir. Sababi jamiyat aholisi qanchalar bilimdon bo‘lsa, ana shu davlatda o‘sish-rivojlanish bo‘ladi.

Onajonlarimiz kichkinaligimizdanoq bizga ertaklar so‘zlab berishardi. Aslida ana shundan boshlangan, adabiyotga tashnaligimiz, adabiyot bilab birga yashashimiz. Xaqiqatdan ham, bizning birinchi ustozlarimiz bo‘lgan onalarimiz, adabiyotga qiziqishimizni uyg‘otgan inson hamdir.

Har bir xalqning adabiyot xazinasida bolalar uchun ham maxsus san’at durdonalari mavjud. Bolalar uchun eng qiziqarli asarlar bu – ertaklar hisoblanadi. Ertaklarda hayotdagi yaxshi-yomon fazilatlar, har doim to‘g‘rilik va egrilik o‘rtasidagi kurash, xullas, qisqacha aytadigan bo‘lsak, ularni to‘g‘ri yo‘lga chorlaydigan g‘oyalar ilgari suriladi. Bular bilan bolalar, yoshliklaridanoq har doim ezgu amallar qiladigan, komil inson bo‘lib yetishuvchi avlodlar ulg‘ayadi. Shunday ekan, har bir millatning qalamkashlari bolalar uchun mohir san’at asarlarini yaratishadi. Ularda har xil g‘oyalar ilgari suriladi.

Nemis va o‘zbek adabiyotidagi ertaklariga to‘xtaladigan bo‘lsak, nemis adabiyoti durdonalarida o‘zbek adabiyoti san’atidagi bilan deyarli bir xil bolalarni ezgulikka yetaklovchi g‘oyalar ilgari suriladi.

O‘zbek ertaklari xalq tomonidan yaratiladi. O‘zbek ertaklariga: “Urto‘qmoq”, “Zumrad va Qimmat”, “Uchar gilam”, “Echki bolalari”, “Qilich-botir” va boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Boshlanishi “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Bir chol-u kampir bo‘lgan ekan.”¹ deb boshlanishi menga juda yoqadi. Qolaversa, voqealar

¹ <https://ertak.uz>

rivojida yaxshilikni yomonlikdan ustun qo‘yilishi, har doim yaxshilik g‘alaba qozonish maqsadlari ilgari suriladi. Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagi misolida mazmunini tahlil qiladigan bo‘lsak, ikki opa-singilning bir-biridan tubdan farq qiluvchi xarakterlaridagi tomonlar ko‘rsatib berilgan. Masalan, Zumradning mehnatsevarligi, zukkoligi, sabrliligi bilan hamisha hayotda har tomonlama yetuk inson bo‘lish zarurligi uqtirilsa, Qimmat obrazi orqali bir dangasa, ishyoqmas, ayyor, onasining erkatoy qizi ta’riflangani orqali yosh avlod ulardan yaxshi xulosa chiqarishlari uchun ajoyib bir namuna sifatida olishimiz mumkin. Zumradning aytilgan ishlarni so‘zsiz bajarishi, uning zukkoligi, mehnatkashligi hamisha e’zozlanib kelgan va Qimmatdan farqlovchi tomonlari sezilarli darajadadir. Albatta, bu ertak ham xalq tomonidan yozilgan, bundan shuni anglash mumkin-ki, xalq real hayotdagi voqealar asosida yaratilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Aslini olganda, mana shunday ertaklarda bolarlarga yoshliklaridanoq haqiqiy o‘zbek yurtiga munosib farzand bo‘lishlari kerakligi aks etadi. Ertakdagagi voqealar rivoji qanchalar yomonlik bilan davom etsada, so‘ngida doimo yaxshilik bilan tugashini e’tibordan chetda qoldirmasligimiz zarur. Bejizga: “Ertaklar- yaxshilikka yetaklar”-deb bejizga aytilmagan. Hayot yo‘llarimizda ham ana shunday, qanchalar qiyinchiliklar bo‘lmasin, yakunida albatta kutganimizdanda a’lo bo‘lishi mana shu ertaklarda ham e’tirof etiladi. Ertakning so‘ngida “Ular baxtli va farovon hayot kechirishibti”¹ jumlesi bilan yakun topadi.

Nemis adabiyotining yetuk namoyondalaridan bo‘lgan, o‘zining xalq hayotidan real voqealarni badiiylashtirib qalam tebratgan yozuvchilardan biri bo‘lgan aka-uka Yakob Grimm va uning ukasi bo‘lmish Vilyam Grimm nemis bolalar adabiyotida yetuk san’at asarlarining mualliflari hisoblanishadi. ² Ularning asarlari dunyoning barcha mamlakatlarida ma’lum va mashxurdir. “Mushuk va sichqon”, “Rapunsel”,

1 <https://tafakkur.net>

2 <https://www.grimms.de>

“Oq ilon”, “7 qarg‘a” “Bilimdon Elsa”, “Botir tikuvg‘i” va boshqa ertaklarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Masalan, “Botir tikuvg‘i” ertagida bir insonning qanchalar aqliligi, fikrlash doirasi kengligi, har qanday vaziyatda o‘zini tuta bilishi va tayyorligini ko‘rishimiz mumkin. Hayotda insonlar turfa xil bo‘lishlari, ba’zilari aldoqchi yoki ayyor bo‘lishi, lekin shu bilan birgalikda aqli mehnatkash insonlar ham ko‘rsatib beradi. Barcha ertaklar singari, aka-uka Grimmlarning ertaklaridagi bosh g‘oya bu- hamisha yaxshilikni g‘alaba qozonishidir.

Mana ko‘rib chiqqanimizdek, ertakdagi g‘oyalarning barchasi, yaxshi va yomonnni farqlashga, doim ezgu ishlar qilishga, hech qachon yomonlik qilmaslikka undaydi. Adabiyotimizdagи bolalar uchun yaratilgan noyob san’at durdonalarini butun jahon bo‘ylab targ‘ib qilsak, uni ko‘klarga ko‘tarsak, nafaqat ona tilimizga, balki butun dunyo bolalari ma’naviyatiga chuqur ta’sir o‘tkisgan bo‘lamiz. Birinchidan, o‘zbek tilimizni dunyoga tanitib, qolaversa, uning adabiyotida shunday asarlar borligini butun dunyo bilishi zarur. Ikkinchidan, o‘zbek adabiyotidagidek noyob durdonalarini yosh avlod o‘qib, ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarishlariga ishonchim komil. Axir o‘zbek xalqidek, aqli, mehnatkash insonlar bormi bu dunyoda? Zero, mana shunday ulug‘ davlatni kelajakda yana ham yuksaltirish hozirgi kunning mitti yulduzlari qo‘lidadir. Shu sabablar tufayli, har bir xalq adabiyotida bolalar o‘rnak olishlari uchun ertaklar muhim bir o‘rin egallashi kerak deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://ertak.uz>
2. <https://www.grimmlarnings.com>
3. <https://maerchen.com>
4. <https://tafakkur.net>
5. <https://www.grimms.de>